

**TIQXMMI Ilmiy Kengashining "24" iyun 2021-yil, № 11-son majlis bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya qilingan.**

**UDK: 631.115:631.61067**

Mamlakat iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muxim shartlaridan xisoblanadi.

Ushbu monografiyada suv xo'jaligi tashkilotlarida buxgalteriya hisobinida xugatlar aylanishini takomillashtirish masalalari tadqiq gilingan bo'lib, unda buxgalteriya hisobi ishini yuritish va xujjatlar aylanishi asoslari, Suv xo'jaligi tashkilotlarida buxgalteriya hisobi hujjatlarining aylanishi, Suv xo'jaligi tashkilotlarida buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishini takomillashtirish yo'llari, shuningdek buxgalteriya balans ko'rsatkichlari va moliyaviy holat tahlili tadqiq qilingan.

Monografiyada suv xo'jaligi tashkilotlarida buxgalteriya hisobi muammolari ustida olib borilayotgan xugatlar aylanishini takomillashtirish va uni aylanish asoslari dasturlarini ishlab chiqishda, qishloq xo'jaligi vazirligi, suv xo'jaligi vazirligi, ilmiy muassasalar, O'zbekiston Respublikasi fermerlar kengashi, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari doirasida Suv xo'jaligi tashkilotlarida buxgalteriya hisobini rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqishda hujjatlar aylanishini takomillashtirish mumkin bo'lgan qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o'rin olgan.

Monografiya agrar sohada tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, magistrlar va ilmiy soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

iqtisod fanlari doktori, professori.

**A.K. Ibragimov**

iqtisod fanlari nomzodi, dosent.

**A.M. Babadjanov**

Sh.I. Xodjimuxamedova

/Suv xo'jaligi tashkilotlarida buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishini takomillashtirish/

Monografiya. –T.: TIQXMMI, 2021. –102 bet.

**©, Mh.I. Xodjimuxamedova, 2021.**

**©. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi (TIQXMMI), 2021 y.**  
**Institut (TIQXMMI), 2021 y.**

**KIRISH**

Bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biri moliyaviy, shuningdek barcha resurslarning hisob-kitobini to'g'ri va aniq yuritishdan iborat. Bunga albatta buxgalteriya hisobi orqali erishiladi. Buxgalteriya hisobining xususiyatlaridan biri xo'jalik muomalalarini yoppasiga va uzluksiz aks ettirilishi hisoblanadi. Bu dastlabki hisob axborotning manbai hisoblangan hujjatlashtirish yordamida amalga oshiriladi. Barcha xo'jalik muomalalariga tuziladigan hujjatlar majmuasi hujjatlashtirish deb ataladi. Ulardagi ma'lumotlar keyinchalik joriy buxgalteriya hisobida xo'jalik muomalalarini aks ettirish uchun yagona asos bo'lib xizmat qiladi. Xo'jalik muomalalari ustidan kuzatishni amalga oshirishni ta'minlab va ularni albatta muomalalar aks ettirilishining sharti bo'lib hisoblangan hujjatlashtirish, buxgalteriya hisobi usulining tarkibiy unsuri bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa ijtimoiy – siyosiy hayotni, jumladan iqtisodiyotni bir qancha sohalarini, jumladan buxgalteriya hisobi tizimi ham isloh qilishni boshladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7 –fevraldagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” jamiyat hayoti barcha sohalar uchun asosiy dastur bo'lib hisoblanadi”.

Buxgalteriya hisobini isloh qilinishi, eng avvalo, uning boshqaruv hisobi moliyaviy hisob va soliq hisobiga bo'lib o'rganishimizni taqazo etadi. Hisobning shunday bo'limishi nafaqat korxonaning, balki barcha manfaatdor tomonlarning, shu jumladan davlatning ham istiqboli uchun xizmat qiladi.

Respublika buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biri – bu buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda yuritish tartibini imkon qadar xalqaro talablar darajasiga muvofiqlashtirib borishdan iboratdir.

Birorta bir xo'jalik muomalasi ham, agar unga tegishli tartibda tuzilgan va rasmiylashtirilgan hujjat bo'lmasa, hisobga olinishi mumkin emas. SHuning uchun har bir hujjat ma'lum talablarni hisobga olgan holda tuzilgan bo'lishi va undagi muomalalarning sodir bo'lishi yoki rasmiylashtirilishida qatnashgan hamda shu bilan tegishli jarayonlar haqiqatda tashkilotda sodir bo'lganligini tasdiqlovchi shaxslarni imzolari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Buxgalteriya yozuvlariga asos bo'lib hisoblangan hujjatlarda sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Ulardan ko'pchiligi

'Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. – Toshkent. "Xaqq c'yan", 2017 yil 8-fevral. "Узбекистон Республикаси қонуни ҳужжатлари тўлими", 2017 йил 13-февраль, 6-сон, 70-модда.